

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparati
xodimlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa
me‘yoriy-huquqiy hujjatlarini o‘rganish soatlari to‘g‘risida**

MA'LUMOT

Tadbirda ma'ruzachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasini to‘g‘risida”gi O‘RQ-458-son Qonuni haqida tushuntirish berildi.

Qonun 4 modda, qonun bilan tasdiqlangan Mudofaa doktrinasidan iborat bo‘lib, unda umumiy qoidalar, doktrinaning harbiy-siyosiy, harbiy-strategik, harbiy-iqtisodiy jihatlariga bayon qilingan.

Ushbu Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasini to‘g‘risida»gi 105-I-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 yil, № 9, 180-modda) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topildi.

Mudofaa doktrinasini harbiy sohada O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta‘minlashga doir prinsiplar va yondashuvlarni belgilaydi.

Doktrina:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi, xalqaro huquqning, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining prinsiplari va normalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo‘lgan xalqaro shartnomalarga tayanadi;

mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo‘lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatidan kelib chiqadi;

Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasining va mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarning asosiy qoidalarini inobatga oladi;

harbiy mojarolarning oldini olish, hayotiy muhim milliy manfaatlarni himoya qilish bo‘yicha davlat, jamiyat va fuqarolar faoliyatini tashkil etish yo‘nalishlari va usullarini ochib beradi;

davlatning kelajakda mudofaa sohasidagi siyosati ustuvorliklarini, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini (bundan buyon matnda Qurolli Kuchlar deb yuritiladi) tayyorlash, qurish va qo‘llashning asosiy prinsiplari va yo‘nalishlarini belgilaydi.

Doktrinada Qurolli Kuchlarning asosiy vazifalari va ularni qo‘llash asoslari keltirib o‘tilgan. Jumladan, Qurolli Kuchlar davlat harbiy tashkilotining va mamlakat mudofaa tizimining negizi bo‘lib, harbiy mojarolarni jilovlash hamda ularning oldini olish, shuningdek davlatning harbiy xavfsizligini ta‘minlash uchun mo‘ljallangandir. Qurolli Kuchlarni qo‘llash O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo‘mondonining farmonlari, qarorlari va

farmoyishlariga, shuningdek mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Shuningdek, yig'ilgan ishtirokchilar tomonidan o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha ma'ruzachiga savollar berishdi hamda belgilangan muddatda o'tkazildi.